



## PEDAGOGI GLARNI INTELEKTUAL KOMPETENTLIGI VA KASBIY MAHORATI

Homidova Gulshoda Baxromjon qizi

Fardu magistranti

Ergasheva Orzuxon Abdujabbor qizi

18- DMTT tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14978053>

### ARTICLE INFO

Received: 17th February 2025

Accepted: 18th February 2025

Published: 28th February 2025

### KEYWORDS

*Intelektual kompetensiya,  
kreativlik, mahorat.*

### ABSTRACT

*Hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetensiya darajasini yuqori sifatda rivojlantirish, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga yo'naltirishlari, ta'lim tizimiga innovatsion ta'lim va axborot texnologiyalarini tadbiq etish nazarda tutilmoqda. Oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or xorijiy tajribani o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish dolzarb vazifalari etib belgilangan.*

Hozirgi kunga kelib, Yurtimizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun juda katta sharoit yaratildi. Shu bilan birga, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini yaratdi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» .

Hozirgi paytda ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarni kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish va innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv tizimiga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ilg'or xorijiy tajribalarni va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimida oldida turgan dolzarb vazifalaridan.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi. Shu o'rinda biz «kreativlik» tushunchasiga alohida to'xtab o'tsak, bu tushuncha so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p o'rinlarda qo'llanilmoqda. Ammo, shu bilan birga bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda pedagoglarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir bir qator ishlar olib borilgan. Bunga misol qilib psixologiya sohasida keng ishlar olib borgan. A.Y. Agafonov, Y. Lotman, V. Rudnev, G.S. Batishev, M.M. Baxtin, D.B. Bogoyavlenskaya, A.Maslou, A.A. Melik-Pashaev, I. Meyerson, A.Y. Ponomarev, M. Rorbax, S.L. Rubinshteyn, V. Frankl, R. Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir.

Yuqorida aytib o'tgan olimlarning ilmiy tatqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, psixologik nuqtai nazardan kreativlikning mazmun-ma'nosi jihatdan olimlar quyidagi xulosalarga kelishganva to'g'ridan- to'g'ri Kreativlik nima? degan savolga javob topamiz.

- Kreativlik - bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

- Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, "atrofimizdagi kundalik hayotda ijod mavjudlikning zaruriy shartidir" Lerner ijodkorlikni sifat jihatidan yangi va o'ziga xos narsalarni yaratadigan faoliyat sifatida belgilab, ijodkorlikka o'qitish erishib bo'lmaydigan muammolar echimini mustaqil izlash vositasini yaratishini va o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantirish ekanligini ko'rsatadi. L.M.Popov ijodkorlikning boshlanishini tirik materiyaning aks ettirish qobiliyatidan ko'radi. Inson ko'p o'lchovli, ko'p ob'ektli dunyo va uning ichki dunyosini aks ettirish va o'zaro aks ettirish jarayonida mustaqil ravishda faol ishtirok etadi. Faylasuf S.S. Goldentricht, ijodning mohiyati insonga dushmanlik qiladigan faoliyat bilan mos kelmaydi. U ijodkorlikni inson faoliyatining o'ziga xos turi sifatida tahlil qilishda u "progressivlik" belgisiga e'tibor qaratadi va "ijodiy harakatning mohiyati bu yaratilish, inson va jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan yangi progressivning tug'ilishi" ekanligini ta'kidlaydi. Haqiqiy ijod inson shaxsiyatining rivojlanishiga, insoniyat madaniyati rivojiga olib kelishi shart.

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayonida avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, ijodkorlik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni kreativ fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga undash ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yuqori cho'qqiga erishishga rag'batlantirishda asosiy vosita bo'la oladi. Pedagogning ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. - T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014.
- 4.Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur chashmalari" T.: 2013 y.
- 5.Kayumova N. M. "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y. Axborot manbaalari.
6. Muslimov N.A.,Usmonboyev M.H.,Sayfurov D.M.,Turayev A.B.,Pedagogik kompetantlik va kreativlik asoslari T.:2015
- 7.Davlatshen M.G. Umumiy psixologiya T-2002